



PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF NATURAL AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN AN INFORMATION SOCIETY

Toshboboyev Maksud Jalilovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Associate
Professor, Dean of the Faculty of Entrepreneurship and Management,
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Email: maksudtoshboboyev1988@gmail.com

Phone: +998 90 945 17 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835084>

ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Intelligence, natural
intelligence, artificial
intelligence, digital
technologies, ethics, social
life of society, science,
education, industry and
production.

ABSTRACT

This article examines the unparalleled capabilities of intelligence and the interdependence and differences between natural and artificial intelligence based on analysis. It is also important to answer the question of whether natural intelligence or artificial intelligence is the most convenient way for humans in this process. In the era of today's technological development, artificial intelligence and the social, economic, moral and cultural processes that have arisen as a result of it are scientifically analyzed. In addition, the relationship of artificial intelligence to human life, especially the huge changes that have been made in the fields of education, healthcare and service provision in recent years, are philosophically analyzed.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЕСТЕСТВЕННОГО И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Тошбобоев Максуд Жалилович

Доктор философии по философским наукам (PhD), доцент
Декан факультета предпринимательства и управления Денауского института
предпринимательства и педагогики

Email: maksudtoshboboyev1988@gmail.com

Тел.: +998 90 945 17 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835084>

ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Интеллект,
естественный
интеллект,
искусственный
интеллект, цифровые
технологии, этика,

ABSTRACT

В данной статье на основе анализа рассматриваются беспрецедентные возможности интеллекта, а также взаимозависимость и различия между естественным и искусственным интеллектом. Важно также ответить на вопрос, какой из способов — естественный или искусственный — является наиболее удобным для человека в этом процессе. В эпоху современного технологического развития проводится научный анализ искусственного интеллекта и социальных, экономических, моральных



социальная жизнь общества, наука, образование, промышленность и производство.

и культурных процессов, возникших в результате его развития. Кроме того, философски анализируется взаимосвязь искусственного интеллекта с жизнью человека, особенно масштабные изменения, произошедшие в последние годы в сферах образования, здравоохранения и предоставления услуг.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA TABIIY VA SUN'IY INTELEKT RIVOJLANISHINING FALSAFIY MOHIYATI

Toshboboyev Maksud Jalilovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani

maksudtoshboboyev1988@gmail.com

+99890 945 17 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835084>

ARTICLE INFO

Received: 24th July 2026

Accepted: 29th July 2026

Online: 30th July 2026

KEYWORDS

Axborotlashgan jamiyat, intellekt, tabiiy va sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, etika, jamiyatning ijtimoiy hayoti, fan, ta'lim, sanoat va ishlab chiqarish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada intellektning beqiyos darajadagi imkoniyatlari hamda tabiiy va sun'iy intellektning o'zaro bog'liqlik va farqlari tahlillar asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek bugungi texnologiyalar va suniiy intellekt vositalarisiz insoniyatni tanlov imkoniyatlari ham qisqarganligi, bu jarayonda inson uchun eng qulay yo'l tabiiy intellektmi yoki suniiy intellektmi degan savolgan javob berish muhim ko'rsatgich hisoblanadi. Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda sun'iy intellekt hamda uning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va madaniy jarayonlar ilmiy tahlil qilingan. Bundan tashqari sun'iy intellekt inson hayoti bilan bog'liqligi ayniqsa so'ngi yillarda ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmatlar ko'rsatish sohalarida amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlar falsafiy tahlil qilingan.

Kirish

Bugungi tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv asri inson va texnikaning o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liqligi asosida ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan tasirini ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Ijtimoiy munosabatlar doimo insonlar o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muloqot vosidalarida namayon bo'ladi. Insonlar o'rtasidagi muloqotda axborot asosiy o'rinni egallaydi.

XXI- asrning "Axborotlashgan jamiyat" asri bo'lganligi sababli, axborotning holisligi va asoslanganligi har doimgidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida tabiiy va suniiy intellekt o'rtasidagi muvofiqlik va farqlar bilan izohlanadi. Globallashuv hozirgi vaqtda nafaqat iqtisodiyotga balki ijtimoiy, madaniy, intellektual jarayonlarga ham o'z tasirini ko'rsatmoqda. "Axborot jamiyati tushunchasi madaniy va ijtimoiy



jarayonlarning tub transformatsiyasini anglatadi, unda axborot ijtimoiy tizimning eng muhim resursi sifatida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni belgilaydi" {1. 21} Mazkur talqinda axborotning markaziy o'ringa chiqishi jamiyatning strukturaviy shakllanishida yangi sifat bosqichini bildiradi. Shu nuqtayi nazardan, axborotlashgan jamiyat fenomeni faqat texnologik taraqqiyot emas, balki ijtimoiy-falsafiy ongning ham mutlaq yangilanishini anglatadi. Endi bevosita tabiiy va suniiy intellekt mazmun mohiyatini ilmiy asosda ko'rib chiqsak.

Intellekt lotincha "intellaects" so'zidan olingan bo'lib bilish, tushunish, idrok qilish hamda [insonning](#) aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati hisoblanadi. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirada saqlash, fikr yuritish, so'zlash va boshqa shu kabi psixologik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, [miya](#) imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga qarab belgilnadi. Sun'iy intellekt, asosan, tabiiy intellektga nisbatan yordamchi vazifasini bajaradi. U ahamiyatli darajada insonning ayrim tafakkurga oid harakatlarini o'z zimmasiga olish yo'li bilan uning aqliy mehnatini yengillashtiradi. Sun'iy intellekt inson intellektiga o'xshash ravishda yaratilganligi sababli uning

harakatlanish tamoyillarini tadqiq qilish, inson miyasida yuz berayotgan tafakkur qilish jarayonlarining mohiyatini anglash imkonini beradi. Sun'iy intellektni yaratishdan asosiy maqsad, insonning anglash darajasidagi rasional harakatlari modelini ishlab chiqishdan iborat. O'z navbatida, bu sun'iy intellektni chuqurroq anglash va baholash imkonini beradi. {2. 6}

Asosiy qism

Ushbu mavzuni taqiqi etar ekanmiz intellekt borasidagi ilmiy qarashlar qadimdan insoniyatni qiziqtrib kelganligiga govoh bo'lamiz. Bu borada sharq va g'arb olimlarining qarashlari bir-biriga muvofiqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davr nuqtai nazaridan globalashuv jarayonida inson ongida o'zini qurshab turgan borliqni anglashga yangicha qarashning shakllanishi ijtimoiy zaruriyat sifatida dialektik sababga ko'ra muhimligi, bu jarayonda sun'iy intellekt tizimining tutgan kompensatorlik va kommunikativ jihatdan o'rni va uning inson moddiy-ma'naviy manfaatlari uyg'unligini ta'minlashi mumkinligini ijtimoiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat tamaduning eng yuqori darajadagi o'sishini XXI asrga kelib guvohiga aylanmoqdamiz. Bugungi kunda shunchaki fantastik hisoblangan uchar mashinalar, yoki masofadan turib boshqariladigan dronlar, inson miyasida o'ylagan barcha fikrlarini real hayotda aks ettiradigan robotlar kash etilishi bu shubhasiz texnika asrining cheksiz yutuqlaridan darak bermoqda. Sun'iy intellekt – matematika va mantiqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi bo'lib bu nafaqat ilmiy



faoliyatni rivojlantrish orqali insoniyatga yengillik yaratish balki, ijtimoiy jarayonlarda o'zaro muloqat vositasi bo'lib ham hizmat qiladi. Shu sababli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda aniq va tabiiy fanlar kabi ijtimoiy gumanitar sohalarni tadbqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda sun'iy intellekt eng ilg'or ilmiy fanlardan biri va kelajakning asosiy texnologiyasi sifatida qaraladi.

Demak birinchi navbatda sun'iy intellekt o'zi nima, u orqali qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Atrof-muhitdagi muammolarga echim topishda odamlarga o'xshab fikrlaydigan, ularga taqlid qiladigan dastrularga sun'iy intellekt deb ataladi. Sun'iy intellekt tizimlarini yaratish aniq mehanizmlar asosida amalga oshiriladi. Xususan machine learning texnologiyasi "kompyuterni o'qitish" yoki "mashinani o'qitish" deb ataladi. Bunda komputerga bir muammo korsatiladiva uning yechimi ham oldindan tayyorlanadi. Misol uchun biror bir odamni taniydigan dastur yaratish uchun avval bu kompyeterga o'sha insonning suratlarini yuklaymiz, kimligini aytamiz. Kiyin esa bu kim degan savolni oldiga qo'yamiz va bu falonchi degan javobni o'zimiz aytamiz. Shundan kiyingina kompyuter minglab suratlarini ko'rganda ham bu odamni taniydi. {3. 14}

Chunki sun'iy intellekt usullari ko'plab murakkab muammolarni yechishga imkon beradi. Bu yerda masalaning e'tiborli jihati sun'iy intellekt asosida cheksizlikka yaqin bo'lgan yechimlarni tanlash imkoniyatlarining mavjudligi bilan harakterlanadi. Shu boisdan ham bugungi kunda insoniyat

oldida turgan murakkab muammolarni hal qila oladigan sun'iy intellekt tizimlarini yaratish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ingliz olimi D.Bell «Postindustrial jamiyatda hokimiyat endi xususiy mulkga emas, balki bilimga tayanadi. Iqtisodiyot birinchi navbatda moddiy mahsulotlarga emas, xizmat ko'rsatishga asoslanadi. Siyosiy qarorlar faqat ratsional-texnik fikrlarga asoslanadi, Kishilar ijtimoiy qadriyatlar munosabatlarida umumiy konsensusga (munozarali savol va nizolarni kelishuv asosida hal etish) erishadilar, mutaxassislar ratsional uslublarga tayanib, tizimli tahlil va qarorlar qilishga moslashadilar. Qisqacha qilib aytganda, bizni professional boshqaruvchi va texnokratlar davri kutmoqda».{4.119} Demak, texnika taraqqiyoti barchamizdan zamon talabiga moslashib, texnika imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni hayotiy qoidaga aylantirishimiz lozimligini talab etadi. Bunda biz bilgan iqtisodiy qoidalar ishlab chiqarish va sanoatlashish o'rnini, yangi turdagi axborotlar va hizmat ko'rsatishning qulayligi masalalari egallaydi. Bundan kelib chiqadiki zamonaviy dunyoda texnika va ilm-fon imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan davlatlar yanada yuqori marra-larni zabt etadi. Shu o'rinda yana bir masalaga e'tiborimizni qaratsak, insonlarning o'zaro muloqotida asosan texnika imkoniyatlari, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabi vositalar asosiy muloqot vositasiga aylansa bu insonlarning o'zaro begonlashuv muammasini yuzaga keltiradi. Bu muammoning oldini olish uchun esa, inson ma'naviy dunyosini yanada boyitish buning uchun texnika



imkoniyatidan samarali foydalanish talab etiladi. Masalan: Kitob o'qish, til o'rganish, kasbiy malakalarni oshirish, uzoq masofadagi tanishlar bilan o'zaro muloqat qilish kabi jarayonlarni amalga oshirishda sun'iy intellekt vositalaridan unumli foydalanish mumkin.

Yevropa parlamenti sun'iy intellektdan (AI) foydalanishni tartibga soluvchi qonunni ma'qulladi. Bu sun'iy intellektni nazorat qilish bo'yicha dunyodagi birinchi «qoidalar to'plami» ekani ta'kidlanmoqda.

Yangi qonunga ko'ra, quyidagilar taqiqlanadi: real vaqt rejimida yuzni aniqlash, ish joyi va maktablarda odamlarning his-tuyg'ularini aniqlash, ijtimoiy reyting va inson xatti-harakatlarini manipulyatsiya qiluvchi yoki zaifliklaridan foydalanuvchi AI texnologiyalari kabilarni o'z ichiga olgan. Bundan ma'lum bo'ladiki sun'iy intellekt vositalarini to'laligicha insonlar kundalik hayotiga joriy etish ijobiy natijalar bilan birga salbiy holatlarni ham yuzaga keltiradi. Birgina tibbiyot sohasida texnika imkoniyatlari asosida amalga oshirilayotgan ishlar, yaqin davrlargacha imkoniyatsiz vazifalar hisoblangan.

Biz to'rtinchi sanoat inqilobining shiddatli va ko'lamini to'laligicha tushinib yetmadik. Milliardlab odamlarning mobil qurilmalar yordamida o'zaro bog'lanib, ko'z ko'rib quloq eshitmagan ma'lumotlarni qayta ishlash quvvati, ularni saqlash hajmi va bilimlardan foydalanishi natijasida kelib chiqadigan cheksiz imkoniyatlar haqida o'ylab ko'radigan bo'lsa bu hodisaning naqadr muhim ekanligini guvohi bo'lamiz. Suniy intellekt robot texnologiyalari, buyumlar internet, o'zi yurar avtomobillar, uch o'lchamli

printlash nan ova biotexnologiyalar, quvvatni zahiralash, kvant komyuterlari vca boshqa ko'plab sohalarda erishilgan ko'plab yutuqlar endi sinov bosqichida emas balki amaliyotga keng joriy etilmoqda.{5.10}. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki bugun insoniyat nafaqat texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanishi balki, ular keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlariga ham tayyor turishini talab etadi.

So'ngi yillarda sun'iy intellekt bilan bo'g'liq bo'lgan quyidagi sohalarni jadal rivojlanganligini ko'rsatish mumkin:

1. Naqshni aniqlash.
2. Teoremlarni isbotlash va masalalar yechimi.
3. O'yinlar va qaror qabul qilish.
4. Tabiiy tillar va ularni mashinada tushunish. Mashina tarjimai.
5. "Aqlli robotlar".
6. Ekspert tizimlari.
7. Ijodiy faoliyatni modellashtirish.
8. Neyron tarmoqlarini modellashtirish. Hayvonlarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qilish.
9. Sanoat, harbiy, kosmik va boshqalar uchun ixtisoslashtirilgan aqlli tizimlar.

Ko'rib chiqilgan pozitsiyalarning ko'pchiligida, kompyuter, hech bo'lmaganda, ijodiy intellektual faoliyat haqida gapirganda, odamlardan ancha past ko'rsatgichlarga ega bo'lgan.{6.25} Ammo bugungi kunga kelib yuqoridagi barcha yo'nalishlarda yetarlicha muvofaqiyatlarga erishilayotganligi, bu esa ijtimoiy jarayonlarga bevosita tasir qilishini alohida takdlash lozim.

Bugungi kun ilm-fanida axborot va sun'iy intellekt bilan bog'liq turli yo'nalishlarda ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan,



axborotlashgan jamiyatda sun'iy intellekt va inson faoliyatining o'zaro bog'liqligi, ijtimoiy taraqqiyotda tabiiy va sun'iy intellekt muammosi, intellektual jarayonlarni kibernetik modellashtirish, inson ongi faoliyati bilan o'xshash bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan qator tadqiqotlar konstruktiv ahamiyatga ega. Bu kabi izlanishlarda sun'iy intellekt vositalarining inson hayotini yengillashtirishga, uning aqliy faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan konseptual asoslarini aql va tajribaga tayangan holda o'rganish muhim omil bo'lib qolmoqda.

Sun'iy intellekt va ijtimoiy munosabatlar haqida so'z ketganda yaqin yillarda kelajakda insonlar qanday kasblar bilan mashg'ul bo'ladi degan savol barchamizni qiziqtrishi aniq. Chunki bundan keyin tanlanadigan kasblar texnologiyalar bilan bo'g'liq bo'lganligi uchun o'lmaydigan kasblar bo'lib, qo'l kuchi va aqliy mehnat sohibi bo'lgan insonlarga munosib raqobatchi hisoblanadi. Ilm- fan taraqqiyoti bo'yicha AQSH assotsiatsiyasining Vashingtonda o'tgan yillik yig'ilishida ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning 70 (%) foizi robot texnikasining rivojlanishi sababli ishsiz qoladi, degan xulosaga kelgan. Ayni paytda sun'iy idrok kopirayterlik, jurnalistika, o'qituvchilik, huquqshunoslik kabi aqliy mehnat talab qiladigan ishlarni ham egallab olish ehtimoli oshib bormoqda. Hozircha sun'iy idrokni imkoniyatli chegaralangan lekin, u yildan-yilga takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar asosiy e'tiborini ta'limga qaratib, yaqinlashib kelayotgan texnologiya va

insoniyat raqobatiga tayyorlanmoqda. Shuning uchun mamalakatimizda raqamlashtirish bilan bo'g'liq jarayonlarini tizimli tarzda izchil davom ettirish juda muhim. Ta'lim tizimi, tibbiyot, hizmatlar ko'rsatish yo'nalishlarida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish har qachongidan ham dolzab ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim sifatini ta'minlashda yoshlarni ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy yondashuvlari muhim ko'rsatgichlar hisoblanadi. Bular esa albatta ilmiy hamjamiyat a'zolari va butun bir millatni masalasiga aylanmog'i lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugun insoniyat rivojlanishining yuqori chegarasini zabt etganligiga guvoh bo'lamiz. Qisqa vaqt ichida sun'iy intellekt imkoniyatlari shu darajada osishga erishdiki, endi ayrim masalalarni hal etishda inson omiliga ehtiyoj qolmadi. Bu jarayon bir tomondan juda ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Sababi inson uchun eng muhim bo'lgan vaqt va resursni tejashning sinalgan vositasidir. Shu bilan birga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar masalasida, shahsiy javobgarlikni kamayishi, texnika imkoniyatlariga qaramlik, axborot oqimida tahlil qilish imkoniyatlarining pasayishi va eng muhimi insonlarning o'zaro begonalshuv muammosi yuzaga keladi. Endi bevosida bu jarayonlarni tahlil qiladigan bo'lsak, insoniyat yaratilganb ilk davrlardan boshlab tabiatni o'zlashirishga harakat qilgan. Shuning uchun ham bugungi kungacha uchta sanoat inqilobini boshdan



kechirgan. Hozirgi sanoat inqilobi esa bevosita texnologiya imkoniyatlarining, inson aqliy salohiyati bilan raqobatlashishiga olib kelmoqda. Bu kurashda inson uchun eng muhim qurol shubhasiz bilim hisoblanadi. Shunday ekan kelajagimizni qay darajada yorqin va farovon bo'lishi ta'limga bo'lgan e'tibor bilan belgilanadi. Hozirgi davrda

sun'iy intellekt imkoniyatlaridan eng ko'p foydalanayotgan davlat bu Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi, dunyoda aholisi eng ko'p bo'lgan davlat ham Xitoy, demak raqamlashtirish orqali ham insonlarga yengilliklar yaratish, balki jamiyat a'zolarining iqtisodiy va ijtimoiy faolligiga ham erishisha olamiz.

References:

1. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996. – 556 b.
2. Toshboboyev M.J. Axborotlashgan jamiyatda sun'iy intellektni falsafiy tahlili. -T.: Metodist. 2023y. 5 b.
3. O'zbekistonda oliy ta'lim. T. №3. 2023 y
4. Bell D. Gryaduyeyeye postindustrialnoye obuyestvo. – M.: 1999. – S. 119.
5. Klaus. Shvab "To'rtinchi sanoat inqilobi" Toshkent. Nihol. 2022y. 10 b.
6. Leyn N. Vopros jizni: energiya, evolyusiya i proisxojdienie slojnosti. – M.: AST: Corpus, pech. 2018. – 461 s.
7. Herbert A. Simon: The Bounds of Reason in Modern America by Hunter Crowther-Heyck, (JHU 2005). – P. 25.